

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI  
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI**

**“UZLUKSIZ TA'LIMDA FILOLOGIYA FANLARINI  
O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI”**

Respublika miqiyosidagi onlayn ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallar to‘plami

2021-yil 19-oktabr

BUXORO – 2021

“Uzluksiz ta’limda filologiya fanlarini o‘qitishning dolzarb masalalari” Respublika miqiyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro: Buxoro viloyati XTXQTMOHM, 2021. 220 bet.

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasи 2021-yil 19-oktabr kuni o‘tkazilgan Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari asosida tayyorlangan. Mazkur to‘plam uzluksiz ta’limda filologiya fanlarini o‘qitishning dolzarb masalalari va uni takomillashtirish, bu borada ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashga doir dolzarb masalalarga bag‘ishlangan.

Ilmiy maqolalar Buxoro, Toshkent, Samarqand, Navoiy, Namangan, Andijon va Surxondaryo viloyatlarining universitet, institut va maktab o‘qituvchi-professorlari tomonidan yozilgan.

**Tashkilotchi:** Buxoro viloyati XTXQTMOHM, “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasи

**Mas’ul muharrir:** S. H. Vohidova

**Tahrir hay’ati:** p.f.n., dotsent B.Y. Ahmedov  
p.f.n., dotsent U.A. Qosimov  
L. Sh. Bozorov  
S.S. To‘rayeva  
S.H. Vohidova

---

*To ‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.*



(kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (resipient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona tizimidan foydalanishlari, ya’ni bitta tilda muloqotga kirishishlari lozim bo‘ladi.

## **MAKTAB PARTASIDA O‘TIRGAN BOLALARIMIZNING BARCHASI TILSHUNOS BO‘LISHI KERAKMI?**

*Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,  
BuxDU filologiya fakulteti o‘zbek tilshunosligi  
kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi*

Ona tili – (ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan) maktabda barcha o‘quv predmetlarini ham o‘rganish, ham o‘rgatish vositasi. Tili o‘zbek tilida chiqqan, ona tilisida so‘zlashadiganlar uchun bu tafakkur tili hamdir. Demak, dunyoning lisoniy manzarasini har bir o‘zbek o‘zi uchun ona tilisi vositasida bunyod etadi, tom ma’noda, ona tili xazinasiga ega bo‘ladi va umri davomida bu tunganmas xazinadan foydalanaaveradi, foydalanaaveradi.

Vaholanki, bu yorug‘ olamda inson istalgan davraga so‘zi orqali kirib boradi, uning ortida ham so‘zi qoladi, inson so‘nggi nafasida ham lablari pichirlab so‘z aytadi. (Hatto tushlarimizni ham ona tilimizda ko‘ramiz.) Biz kalom ilmining ta’limi egalari va har bir o‘zbek uchun tafakkur tilining targ‘ibotchilarini ekanligimizni inkor etib bo‘lmaydi. Tahlil: amaldagi maktab “Ona tili” darsliklariga e’tibor beraylik.

Xo‘sish, ularda (“Bilib oling”, “Esda tuting” shaklidagi) qancha grammatik qoidalar berilgan?

5-sinf “Ona tili” darsligida – 192ta; 6-sinf “Ona tili” darsligida – 194 ta; “Ona tili” darsligida – 117 ta; 8-sinf “Ona tili” darsligida – 51 ta; 9-sinf “Ona tili” darsligida – 40 ta; 10-sinf “Ona tili” darsligida – 26 ta; 11-sinf “Ona tili” darsligida – 25 ta. Jami: 645 ta. Ammo bu hali hammasi emas.

Agar 9-, 10-, 11-sinf “Ona tili” darsliklarida berilgan qoidalarning har biri 1-1,5 sahifa egallashini inobatga olsak, ular miqdori o‘rtacha uch barobarga oshadi. (Bu umumiy qoidalar miqdorining 800dan oshishini ko‘rsatadi.) Hadisi shariflardan birida shunday deyiladi: “Ilmga rag‘bati bo‘limgan kishiga ilm o‘rgatmoq – gunohga botmoq, behuda ilm o‘rgatmoq esa ikki karra gunohga botmoqdir.” Biz o‘quvchilarimizga behuda ilm o‘rgatmayapmizmi?! Professor B.Mengliyev ta’biri bilan aytganda: “Maktabda yoshlarimiz ona tili mashg‘ulotlarida boshi ham, adog‘I ham yo‘q, buning ustiga darslikdan darslikka

o‘tish, sinfdan sinfga ko‘chish bilan keskin o‘zgarib turadigan son-sanoqsiz ilmiy (lingvistik) qoidalarni yodlashga majbur bo‘lishayotganligi” bolaga nima beryapti?!

Biz qachon o‘quvchilarimizga til o‘rgatish bilan tilshunoslik asoslarini o‘rgatish masalasini farqlab olamiz? Qachongacha bolalarimizga “keraksiz ilmni o‘rgatib” ilm o‘rgatmoq savobidan bebahra qolaveramiz?

Agar bilsangiz, o‘quvchi uchun umr bo‘yi kerak bo‘ladigan 3 toifadagi qoidalari bor. Bular –

- 1) orfografiya qoidalari (Bu qoidalari umr bo‘yi kishining yozma savodxonligini tartibga solib turadi);
- 2) orfoepiya qoidalari (Bu qoidalari umr bo‘yi kishining og‘zaki nutqini adabiy me’yorlarga moslashtirib turadi);
- 3) punktuatsiya qoidalari (Bu qoidalari umr bo‘yi kishining yozma nutqida nima demoqchilagini ko‘rsatib turadi).

(Qolgan barcha qoidalari mutaxassis sifatida biz uchun, o‘zimiz uchun zarur.) Yana ta’lim berishda nega buncha darslikka “yopishib oldik?” Darslik nima o‘zi?! Darslik, avvalo, didaktik ta’lim vositalaridan biri. Didaktik ta’lim vositalari deganda ta’lim jarayonida ishlatilatiladigan, foydalilaniladigan barcha vositalar – darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik tavsiyalar-u ishlanmalar, ko‘rgazmalar, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, testlar, nostonart topshiriqlar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar, qomuslar majmuyi tushuniladi.

Biz qanday darsliklar bilan ishlashni istayapmiz? Albatta, dastur asosida tuzilgan, ta’lim mazmunini aks ettiruvchi o‘quv materialini ham, uning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilish usullarini ham, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi uchun zarur sanalgan tahlil (analiz), umumlashtirish (sintez) uchun materialni ham, o‘quv materialidagi tarqoq hodisalarini bir-biriga bog‘lovchi qonuniyatlarini ham o‘z ichiga olgan, bir so‘z bilan aytganda, ta’lim oluvchi uchun ma’lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko‘nikma, odatlarni o‘ziga singdirish uchun tayanch manbani istayapmiz.

Darslik (muayyan o‘quv predmeti ta’limidan kutayotgan natijamizga qarab) ta’lim maqsadi, mazmuni va usuli bilan uzviy bog‘liqlikda har xil bo‘ladi. O‘quvchiga qoida-yu ta’riflar asosida ma’lum miqdordagi bilimlarni berishga mo‘ljallangan darslik o‘quvchi o‘zlashtirishi nazarda tutilgan bilimlar va hosil qilinishi kerak bo‘lgan malaka hamda ko‘nikmalarni deyarli to‘la qamrab oladi va bu holatda o‘quv materiali, asosan, darslik bilan cheklanadi. Maqsad bitta:

o‘quvchi darslik materialini bilsa bas. Bunday darslik bilan ishslash tom ma’nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to‘sinqinlik qiladi.

Darslik topshiriqlar tizimida o‘quvchining mustaqil izlanishi uchun yo‘llanmalar berib borganda, ta’lim oluvchining axborot banklariga doimiy murojaatini talab qilganda, uni ijodiy faoliyatga undagandagina u o‘z maqsadiga erishishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dars davomida ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi(algoritmi)ni va zaruriy o‘quv materialini aralashtirmaslik lozim. Biz hozir darslik deganda ham mavzu talqinini, ham o‘quv materialini, ham ta’lim oluvchi bajarishi lozim bo‘lgan amaliyotlar va ularning tartibini ham, ta’lim oluvchi kelishi kerak bo‘lgan yechim(xulosa)ni ham o‘z ichiga olgan majmuani tushunyapmiz.

Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo‘ljallangan darslik yuqorida zikr etilgan darsliklardan farq qilmog‘i lozim; yangi maqsadlar uchun yangi turdagи darsliklar zarur. Eski qolipda yozilgan darsliklardan xalos bo‘lmay, bolalarimizni yangicha fikrlashga o‘rgatish mumkin emas. Yangicha o‘qitishda, ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishda o‘quv materiali darslik materiallaridan ancha keng bo‘lmog‘i shart. Jumladan, ona tilidan darsliklar o‘quvchilarga xilma-xil lug‘atlardan (axborot banklaridan), qomuslardan, ma’lumotnomalardan, mакtabda o‘qitiladigan boshqa o‘quv predmetlari bo‘yicha olgan bilimlari va ma’lumotlaridan, tajribali kishilar (o‘quvchilarning yaqinlari)dan qo’shimcha material olishga, bu – darslikda berilmagan material ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirgan taqdirdagina ko‘zlagan maqsadiga erisha oladi. Aks holda, u o‘quvchi oyoq-qo‘liga kishan, tafakkuriga g‘ov bo‘ladi.

Yangi maqsadga yangi turdagи darslik, yangicha mazmun, yangicha usul va vositalar olib kelishi va yangi shaxsni – tadbirkor, axborot manbalarini chuqr biladigan, undan o‘ziga kerakli ma’lumotlarni tez topa oladigan, bu ma’lumotlar ichida o‘zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va serunumidan foydalana oladigan tezkor tadbirkor shaxsni yetishtirishni ta’minlashi mumkin. Shuning uchun yangi darsliklar mashqlar majmuasidan emas, balki topshiriqlar tizimidan iborat bo‘lmog‘I kerak. Lekin bunday darslik bilan ishslash uchun ta’lim ishtiroychilari ona tilidan ta’lim jarayonida zarur bo‘lgan axborot banklari bilan to‘la ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Bugun maktab darsliklarini tanqid qilishga ko‘nikib qoldik. Bu qaysidir jihatdan yaxshi. Ammo dunyoda eng qiyin yumushlardan biri – darslik tayyorlash. Sababki, tayyorlagan mahsulotingdan ming-minglab kishi foydalanadi. Ta’lim oluvchi sen darslikda “chizgan chiziq” asosida bilim oladi va uning natijasi kamida 10-15 yilda jamiyatda “balqib chiqadi”. Masalan, maktab ona

tili mashg'ulotlari o'z vazifasi – barcha darslar amaliy xarakterda bo'lib ularda o'quvchini so'z mantig'ini anglash, so'z va birikmalarini o'z o'rnida qo'llay olish malaka va ko'nikmalarini, shuningdek, sharqona nutq odobini o'rgatish o'rniga qoidabozlikka o'tib ketdi. (Go'yo maktab partasida o'tirgan hamma o'quvchi tilshunos bo'lishi shartday?!) Natija nima bo'ldi? Natijada ona tili mashg'ulotlari hayotdan deyarli uzilib qoldi. (O'quvchi tarbiyasidagi o'rnini boy berdi.)

Zero, o'rta umumta'liz maktablarida o'qitiladigan ona tili darslari o'quvchiga tilshunoslik asoslarini emas, tilning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishni, ya'ni tilni o'rgatishi zarur. Aslida, juda boy tilning egasimiz.

E'tibor bering-a, birgina go'zal qiz birikmasi takibidagi go'zal so'zini qancha ma'nodoshi (yoki ma'no nozikligida farq qiluvchi muqobili) bilan almashtira olamiz: chiroyli qiz, bejirim qiz, xushbichim qiz, husnli qiz, husndor qiz, xushro'y qiz, ko'rkam qiz, ko'hlik qiz, barno qiz, suluv qiz, nazokatli qiz, latoftali qiz, deganday qiz, zebo qiz, sohibjamol qiz, ketvorgan qiz, tamtam qiz... Hali bu sirani yana davom ettirish imkoni bor.

Bu boradagi takliflarimiz:

1) darsliklar tuzishda rivojlangan mamlakatlar(masalan, Yaponiya, Turkiya, Fransiya, Rossiya va b.lar)ning tajribalari maxsus o'rganilishi muhim;

2) maktab darsliklarini tuzish va amaliyatga tatbiq etish tanlovlari anonim tarzda o'tkazilishi samara beradi. (Ya'ni tayyorlangan darslik mutaxassis-ekspert tekshiruvidan keyin alohida tanlab olinmagan maktabning eksprement sinfi amaliyotida omilkor o'qituvchilar tomonidan (mualliflari sir saqlangan holda) sinab ko'rilishi zarur. Bugun yangi darsliklarning mualliflari kim bo'lishi avvaldan ma'lumligini qanday izohlaymiz?! "Maktab darsliklarini tayyorlashga faqat soha olimlari yoki professorlar haqli" degan yozilmagan, ammo rad etilmayotgan qonunlardan voz kechish payti allaqachon yetdi;

3) bugun darsliklar tuzish borasida "kim deganiga emas, nima deganiga boq"aylik.

### **Adabiyotlar:**

1. Yo'ldosheva D.N. Umumiy o'rta ta'liz maktablarining ona tili o'qituvchilariga ochiq xat// "Ma'rifat" gazetasi 2020-yil 4-mart, №10 (9283)-son.
2. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
3. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2021.–428 b.

## MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>Muallif FISH</b>	<b>Maqola nomi</b>	<b>Sahifasi</b>
<b>1-SHO'BA: UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA ONA TILI VA ADABIYOTI</b> <b>FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b>			
1.	M.Q. Abuzalova K.R. Fatullayeva	Kodlash – tafakkur va dekodlash jarayonining bog'liqligi xususida	5
2.	D. N. Yuldasheva	Maktab partasida o'tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo'lishi kerakmi?	7
3.	L.Sh.Bozorova	Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar	11
4.	L.Ergasheva	Mahmudxo'ja Behbudiy – serqirra ijodkor	14
5.	S. T. Halimova	Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida kreativ fikrlashni shakllantirishning ayrim usullari	16
6.	U.M. Hamroyev	Abdulla Oripov ijodini 9-sinfda o'rgatish usullari	19
7.	U.M. Hamroyev	Zulfiya ijodini o'rgatish usullari	25
8.	S. B.Hamroyeva	O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion usullar	30
9.	D. Hayitova	So'z qudrati	33
10.	D. Hayitova	Ekologik madaniyatni shakllantirishda adabiyotning o'rni	35
11.	M. N. Ismoilova Sh. J. Shomurodov	Kompyuter vositasidan foydalangan holda konsentrizm tamoyiliga asoslangan ona tili va o'qish ta'limi mazmuni	38
12.	U. Kotibova	Adabiyot darslarida muammoli ta'lif texnologiyalaridan foydalanish	42
13.	G. R. Muqimova	O'zbek tilida o'simlik nomlarining leksikografik talqini	44
14.	O. R. Muqimova	Umumiy o'rtta ta'lif muassasalarida ona tili va adabiyoti fanini o'qitishda zamonaviy yondashuv	51
15.	X. R. Narzullayeva	O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari tahlili	57
16.	M.B. Olimova	O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda lug'atlarning ahamiyati	61
17.	M.B. Olimova	Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" asarida tasvirlangan badiiy obrazlarga tavsif	64
18.	O. B. Muhabbat	O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. o'z va o'zlashgan qatlam mavzusining o'tilishi	67
19.	D. Sh. Qurbonova	Maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqini shakllanishida badiiy matnlardan foydalanishning ahamiyati	70
20.	H.H Sa'dullayeva S.Sh.Daniyarova	O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari	73
21.	M. H. Sharipova Sh. J. Shomurodov	Ona tili fanini o'qitish uslublari	76
22.	M.Sayidova, G. Samiyeva, S.Barayeva N. S.Saydaxmedova	Ona tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalarining o'rni	79
23.	G. U. Komilova M. A.To'rayeva	5-sinf ona tilidan innovatsion testlar	81
24.	M. N. Ismoilova	Adabiyot o'qitishda virtual ta'lif texnologiyalari –	86

	M. Sayidova, G.Samiyeva, S. Barrayeva Sh.Sharipova	ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlash omili	
25.	To'rayeva M. Z.	Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash va tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish	89
26.	S. S. To'rayeva	Til – xalq quadrati	92
27.	Ahrorova Iroda	Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda frazeologik lug'atlarning o'rni	95
28.	H.F.To'rayeva	Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish	97
29.		Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq topishmoqlaridan foydalanish	102
<b>2-SHO'BA: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY TILLARGA O'RGATISHDA DAVLAT SIYOSATI VA METODIK YONDASHUVLAR</b>			
30.	L. J. Jalilova M.E. Norqulova	Strategies in teaching foreign languages during the pandemic	107
31.	U. A. Kasimov	Neurolinguistic programming (nlp) in learning foreign languages	112
32.	M. A. Axmedova	The impact of war to the people living in suburbs in "ikki eshik orasi" by utkir khoshimov	116
33.	G. R. Bakhronova	Use of digital technologies in teaching foreign languages	119
34.	A. A.Davlatova	Uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda o'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik asoslari, metod va vositalari	125
35.	F. R. Kamalova Sh. A. Kholova	Modern methods in teaching english at school	138
36.	F. T. Kobilova	Chet tillarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	141
37.	D. B. Narzullayeva	Changements dans la structure d'approvisionnement simple de langue française: tendances modernes	143
38.	M. A. O'ktamova D. M. Nosirova	Chet tili darslarini interfaol usullar asosida tashkil etish	145
39.	Ramazanova N. B.	Methodological concept of support in teaching foreign languages	148
40.	M. Z. Turayeva	Using modern technologies in teaching a foreign language	151
41.	S. H. Vokhidova	Interactive methods and lexico-grammatical comparison of teaching relative languages	154
<b>3-SHO'BA: RUS TILI XORIJIY TIL SIFATIDA: O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, TAMOYILLARI VA METODIKASI</b>			
42.	Б. Я. Ахмедов	Новые подходы к обучению русскому языку как иностранному	160
43.	М. И. Бакаева	Организация проектной деятельности на уроках русского языка и литературы	162
44.	Г. Ю. Хамирова	Преподавание русского языка как иностранного	168
45.	Ш. С. Мурадова	Активные методы обучения на уроках русского языка и литературы	172
<b>4-SHO'BA: FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI TATBIQ ETISH USULLARI</b>			
46.	Т.Аvezov	Понятие глубины знаний в исследованиях PISA	177

47.	M. A. Abduxamidova	PISA – ta’lim sifatini munosib baholaydigan xalqaro dastur	179
48.	Z.Z.Bakayev,	Xalqaro tadqiqotlar doirasida matematik savodxonlik	181
49.	T.O.Avezov	bo‘yicha PISA-2021 tadqiqotining muhim jihatlari	
49.	K. R. Fatullayeva	CEFR bo‘yicha ingliz tilini bilish darajalari	185
50.	M.M.Gadoyeva	Integrative va differensial ta’limda innovatsion	189
50.		yondashuvning ahamiyati	
51.	S. S. To‘rayeva	O‘quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini	193
51.		xalqaro talablar darajasida shakllantirish usullari	

**5-SHO‘BA: MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA FILOLOGIYA YO‘NALISHI  
TINGLOVCHILARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

52.	У. А. Қосимов	Хориж тилини ўрганишда нейролингвистик дастурлаш(нлд)нинг инноватив имкониятларидан фойдаланиш	199
53.	Т. Х. Олимов	Ихтисослаштирилган мактабларда иқтидорли ўқувчиларни танлаш ва улар билан ишлашда узлуксиз таълимнинг ўрни	203
54.	T.O.Avezov	Uzluksiz kasbiy ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratini rivojlantirish	205
	H.S.Gulmatova		
55.	N. K. Botirova	Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish	208
56.	C. С. Мансурова	Узлуксиз таълимни ташкил этишда ўқувчиларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психологик механизmlари	212